

SHAXSNING ILK O ‘SPIRINLIK DAVRIDA PSIXIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

***AKBAYEVA DILOVAR MAMADIYEVNA
ERGASHEVA YULDUZ ESHQUVAT QIZI
BOBOYEVE XONZODABEGIM ALISHER QIZI***

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Boshlang’ich ta’lim yo’nalishi

3-bosqich talabalari

Yo’ldoshev Tojiddin Abdukarimovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti, Pedagogika va psixologiya

Kafedrasi kata o’qituvchisi (maqola ilmiy rahbari)

Annotatsiya: Quyidagi maqolada o‘spirinlik davrining psixik xususiyatlari, bu davrdagi aqliy va emotsiyal rivojlanish, shaxs xususiyatlari yoritiladi. Ularning ong va dunyoqarashining shakllanishi, o‘spirinlik yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ular bilan ishlash, muammoli vaziyatlarni yechish ko‘nikma-malakalarini rivojlantirish masalalariga to’xtalinadi

Kalit so’zlar: ilk o‘spirinlik, o‘spirinlik, intellektual rivojlanish, pedagogika, psixologiya, yetakchi faoliyat, muloqot, emotsiyal rivojlanish, yangi psixologik tuzilma.

Ilk o‘spirinlik davrining psixik xususiyatlari

- Ilk o‘spirinlik davri «**kamolot bo‘sag‘asi**» deb ta’riflanadi. Bu kamolot bosqichi fiziologik, psixologik va ijtimoiy chegaralarni o‘z ichiga oladi. Psixologiya fani o‘spirinlik muammosini kompleks o‘rganishni da’vat etadi.
- Ilk o‘spirinlik Yoshidagi bolalar bu 15 Yoshdan 17-18 Yoshgacha bo‘lgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilaridir
- **O‘spirinlik** – bu odamning fuqaro sifatida shakllanishi, uning ijtimoiy jihatdan etilishi, o‘z taqdirini o‘zi hal qilishi, ijtimoiy hayotga faol ishtirok etishi davri, fuqaro va vatanparvarning ma’naviy sifatlari tarkib topadigan davrdir. Faol ijtimoiy hayot, o‘qishning yangi xarakteri (mustaqil bilim olish) yigit va qizlarda dunyoqarashning shakllanishiga, ularda mustaqillik va burch hissining tarkib topishiga, bilimning turli sohalarida ularning ijodiy qobiliyatini avj oldirishga katta ta’sir ko‘rsatadi.
- Ilk o‘spirinlik davridagi jismoniy rivojlanish ustida to‘xtalib o‘tamiz, bu narsa quyidagi sabablarga ko‘ra muhimdir. Jismoniy rivojlanishning ayrim xususiyatlari ilk o‘spirin shaxsining ayrim sifatlari rivojlanishiga ma’lum

darajada ta'sir ko'rsatadi va uning bundan keyingi hayot faoliyati sohasidagi imkoniyatlarini bir qadar belgilab beradi

- Ilk o'spirinlarga xos xususiyatlardan biri hayotiy rejalarining shakllanishidir. Bir tomonidan hayotiy rejalar shaxs o'z oldiga qo'ygan maqsadlarni umumlashtirishi va mustahkamlashi natijasida vujudga keladi. Boshqa tomondan maqsad va motivlarning qonkretlashishi jarayoni ro'y berad
- Ikk o'spirinlarning bo'lajak kasblari haqida xabardorlik darajasi ham muhim hisoblanadi. Yigit va qizlar ular tanlaydigan kasblar doirasini, har bir kasbning aniq xususiyatlarini bilmaganliklari uchun kasbni tasodifan tanlaydilar. Kasb haqida ma'lumotga ega emaslik oliy o'quv yurtiga kirganlar orasida ham uchraydi. "Bo'lg'usi kasbingizning xarakteri, mazmuni va sharoitidan xabardormisiz?" degan savolga talabalarning to'rtdan bir qismigina "ha" javobini berishgan. Inson kasb tanlayotgan vaqtida qanchalik kichik bo'lsa, uning kasb tanlashi shunchalik mustaqil bo'lmaydi, shaxsiy qadriyatlar tizimi asosida emas, ma'lumotlarning etarli bo'limganligi tufayli kimningdir tavsiyasiga ko'ra amalga oshiriladi
- Kasb tanlash ma'lum shaxsiy intilish darajasini aks ettiradi. U o'z ob'ektiv imkoniyatlarini hamda qobiliyatlarini baholashdan iborat. Bundan tashqari unga sub'ekt tomonidan anglanmaydigan kasbga qo'yiladigan talablar ham ta'sir qiladi. 15-17 Yoshli yigit va qizlarning intilish darajasi ko'pincha yuqori bo'ladi. Bu normal va foydali holat bo'lib, Yoshlarni yanada izlanishga va qiyinchiliklarni bartaraf etishga undaydi. Dastlabki hayotiy muvaffaqiyatsizlik tufayli, masalan oliy o'quv yurtiga topshirishga urinishdan kelib chiqadigan jarohatdan qanday qutulish mumkin?
- Katta yoshdagi maktab o'quvchilaridan biror o'quv faniga ishtirot natijasida ularga har xil kasblarga qiziqish vujudga keladi. Yuqori sinf o'quvchilarini qiziqishlari, mayllari, intilishlari, qobiliyatları, itse'dodlari asosida tanlagan kasblariga to'g'ri yo'naltirish o'spirinlar uchun katta hayotiy masaladir. O'smirlarga o'qituvchilar, ota-onalar jamoatchilik, o'z kasbining ustalari, murabbiylar alohida e'tibor berishlari kerak
- V. A. Krutetskiy o'spirinlarda uchraydigan motivlardan quyidagilarni alohida ifodalaydi:
 - a) biror o'quv faniga qiziqish;
 - b) vatanga foyda keltirish istagi (o'ziga xos psixologik xususiyatini hisobga olmagan holda);
 - v) shaxsiy qobiliyatini ro'kach qilish;
 - g)oilaviy an'analarga rioya etish (vorislik);
 - d) do'stlari va o'rtoqlariga ergashish;
 - e) ish joyi yoki o'quv yurtining uyiga yaqinligi;

- f) moddiy ta'minlanishining yaxshi ekani;
- g) o'quv yurti ko'rinishining chiroyliligi yoki unga joylashish osonligi

Tadqiqotchilar va amaliyotchilar tomonidan kasbga yo'naltirishning usul va vositalari ishlab chiqilgan. E. A. Klimov kasbga yo'naltirish uchun kasb turlarini «**inson-tabitat**», «**inson-texnika**», «**inson-inson**», «**inson-badiiy obras**» singari komplekslarni tavsiya qiladi. Kasb tanlashga yo'llash va kasblarni targ'ib qilish usullaridan yana biri – ko'rsatmali vositalar, ya'ni fototsendlardan, kitoblar ko'rgazmasidan, yosh rassom va tabiatshunoslar ijodiy faoliyatining maxsulidan, naqqoshlik va texnika to'garagi ishlaridan foydalanishidir. Bundan tashqari muzeylarga ekskursiyalar uyushtirish orqali ham ayrim kasblarga qiziqish uyg'otish mumkin

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'oziyev E Psixologiya T.1994
2. Krutetskiy V.A. Psixologiya obucheniya I vospitaniya shkolnikov . M. 1976
3. Kazakov V.G.Psixologiya M.1989
4. Melikboboyevich, S. U., Davrbek o'g'li, M. D., & Azamat Jo'rakul o'g, X. (2024). SHAXSDA SALBIY TUZILMALARNING PAYDO BO 'LISHI. SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI, 2(2), 218-228.
5. Melikboboyevich, S. U., & Istamqulovna, N. S. (2024). XX ASRNING BOSHLARIDA BOLA RIVOJLANISH NAZARIYALARI. TADQIQOTLAR. UZ, 33(2), 235-239.
6. Melikboboyevich, S. U. (2024). KONFLIKT ISHTIROKCHILARI BILAN ISHLASH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 42(1), 214-218.
7. MELIKBOBOYEVICH, S. U., QIZI, X. B. A., & SHAMSIDDINOVNA, X. G. (2024). SHAXSIY AGRESSIYALARNI DAVOLASHDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O'RNI. TADQIQOTLAR. UZ, 37(4), 27-31.
8. MELIKBOBOYEVICH, S. U., O'G'LI, M. S. O., & O'G'LI, M. N. O. (2024). O'SPIRINLIKNING ILK DAVRIDA PSIXIK RIVOJLANISHNING XUSUSIYATLARI. TADQIQOTLAR. UZ, 37(5), 8-11.